

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Ne'matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

2022, специальный выпуск

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решения ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по педагогике и психологии.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раза в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Заместитель главного редактора: Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор: Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Мустафа Саид Арслан, доктор филологических наук, профессор (Турция)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc)

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор педагогических наук (DSc)

Хайитов Шодмон, доктор исторических наук, профессор

Ражабов Кахрамон, доктор исторических наук, профессор

Тураев Халим Хожиевич, доктор исторических наук, профессор

Мухитдинова Хадича Собировна, доктор педагогических наук, профессор

Ниёзматова Роза Хасановна, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук (DSc)

Курбонова Гулноз Нёматовна, доктор педагогических наук (DSc)

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

2022, special release

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Deputy Editor: Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

Editor: Doctor of Pedagogical Sciences(DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I.Ibrahimov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Philology, Prof. Mustafa Said Arslon (Turkey)

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Economics Sciences Otabek S. Kahhorov

Doctor of Philology Kaxramon R. Tuxsanov

Doctor of Historical science, Prof. Sh. Hayitov

Doctor of Historical science, Prof. Halim H. Turaev

Doctor of Historical science, Prof. Q. Rajabov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Xadicha S. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Roza X. Niyozmetova

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo‘lajak chizmachilik o‘qituvchilarida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o‘rni	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san’atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o‘qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida)	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o‘qitishda me‘morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda milliy qadriyat va an‘analarning o‘rni	21
Shuhrat G‘ULOMOV. Tarixiy janrda O‘zbekiston tasviriy san’ati rivoji	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to‘g‘ri qo‘llash tartibi va ularning emotsional ta’siri	27
Qoryog‘di JUMAYEV. Kasb-hunar ta’limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san’at o‘qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san’ati	37
Muhayyo AZIMOVA. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati turlari va ularning o‘ziga xos tomonlari	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san’atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE‘MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi	47
Oybek SHOMURODOV. O‘rta maktab tasviriy san’at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san’atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o‘rni	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o‘lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o‘ziga xos usullari	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san’at darslarida borliqni idrok etish hamda o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O‘zbekiston rassomlari ijodida manzara janri	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. “Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko‘chirish” modulini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san’atining bir turi sifatida	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO‘RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san’atda ranglardan foydalanish va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san’atning shaxs ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san’atni o‘qitishda borliqni idrok etish mashg‘ulotlari	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san’atni qo‘llanilishi	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san’ati	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san’ati mashg‘ulotlarini o‘rgatish metodikasi	103
Jo‘rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O‘rta ta’lim maktablarda musiqaning muammo va yechimlari	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения	108
Jo‘rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta’lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari	117
Jo‘rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo‘llashning mazmuni	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta’limi orqali milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalash	122

Gulshod OSTONOVA

Buxoro davlat universiteti
tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrası o'qituvchisi

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA BORLIQNI IDROK ETISH HAMDA O'QUVCHILARNING FAZOVIIY TASAVVURLARINI OSHIRISH

Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning manzara janri orqali fazoviiy tasavvurlarini oshirish haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, borliq, idrok etish, fazoviiy tasavvur, manzara janri, tabiat tasviri.

В этой статье дается краткий обзор восприятия бытия на уроках изобразительного искусства и способов развития пространственного воображения учащихся с помощью жанра пейзажа.

Ключевые слова: изобразительное искусство, бытие, восприятие, пространственное воображение, жанр пейзажа, образ природы.

This article provides a brief overview of the perception of being in art lessons and ways to develop students' spatial imagination with the help of the landscape genre.

Key words: fine arts, being, perception, spatial imagination, landscape genre, nature image.

Kirish. Tasviriy san'at eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. Ajdodlarimiz dunyoqarashini shakllanishida tasviriy san'at muhim vazifalarni bajargan. Eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini, istaklarini va shuningdek, turli xatti-harakatlarini chiziq, oddiy formalar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar.

Manzara - fransuzcha "peysaj" so'zidan olingan bo'lib, "tabiat" degan ma'noni anglatadi, tasviriy san'atda esa tabiatning tabiiy yoki hayoliy ko'rinishlarini ifodalovchi janr hisoblanadi. Manzara janrining ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin

Asosiy qism. Borliqni idrok etish o'quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak-atrofdagi nafislik va go'zallikni ko'ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy badiiy-ijodiy faoliyatlarda foydalanish nazarda tutiladi. Shuningdek, tabiatga qilingan sayohat jarayonida zarur hollarda ayrim obyekt va hodisalarni qalam, bo'yoq va boshqa badiiy materiallar yordamida xomaki rasmlari ham ishlanadi.

Bunday darslarda bolalar sinf va sinfdan tashqarida o'simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko'rinishlari, kafiyati (quvonchli, g'amgin, o'ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Boshlangich sinflarda borliqni kuzatish va ular haqidagi suhbatlar o'quvchilarga hayotdagi ba'zi bir hodisalarni kengroq bilib olishga yordam beradi. U narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma'lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o'stirishga ham imkon beradi.

Tabiat va borliqni kuzatish jarayonida bolalarni uni sevishga, asrashga o'rgatiladi. Tabiatga qilingan sayohatlarda ularning ayrim jihatlari fasllarga bog'liq holda o'zgarib turishligi bolalarga tushuntiriladi. Shuningdek, bunda bolalarning fazoviiy tasavvurlari ham o'stiriladi va planlik, chiziq va havo perspektivasiga ham e'tibor beriladi. Borliqni kuzatish bevosita tasviriy ijodiy faoliyat bilan bog'liq ekanligi, borliqni bilmasdan turib sifatli tasviriy ishlarni bajarish mumkin emasligi bolalar ongiga yetkaziladi.

Borliqni idrok etish mashg'ulotlarini vazifalariga rioya qilgan



holda quyidagi mazmunda mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi:

1. Kuz, qish, bahor fasllarida tabiatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.
2. Gullar, hashoratlar, dekorativ baliq va qushlarni kuzatish.
3. Tabiat mo'jizalari, bahorgi va kuzgi ishlar bilan tanishish.

Tasviriy san'atning boshqa janrlari bilan bir qatorda manzara janri ham o'zining go'zalligi, serqirraliligi, mukammalligi bilan o'zgacha ko'rinish kasb etadi. Tasviriy san'atda tabiat, shahar industrial-sanoat, interyer ko'rinishlarning tasvirlanishi manzara janriga taalluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, ya'ni hayotiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalarda borliq ijodiy tarzda, hayolan ifodalangan bo'ladi.

Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga manzur bo'lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboyev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni alohida tilga olish mumkin.

Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu interyer hisoblanadi. Interyer binolarning ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi misrliklar va xitoyliklar o'z ishlarida interyerni aqlbovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Manzara janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'-u toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboyevning "O'zbyekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da bahor", Z.Inog'omovaning "Arpa o'rimi", "Choyga", R.Temurovning "Bibixonimda bahor", "Ulug'bek madrasasi" asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Manzara janrida yaratilgan asarlar o'zi bilan chuqur his-tuyg'ularni saqlab qolish hamda tarixiy ruhni tasvirlash imkoniyatiga ega. Ayniqsa, qadimga Rim, Gretsiya hamda Sharq rassomlari o'z asarlari orqali makon va zanonni, shu davrda mamlakatning joylashuv reylefini o'z manzaralari orqali mahorat bilan tasvirlaganlar. O'qta asrlarga kelib esa manzara yo'nalishida chizilgan asarlar bilan ibodatxonalar, saroylar hamda boylarning uyini bezatish urf bo'lgan. Yevropada manzara janri XVII asrda tamoman shakllangan bo'lib, uning gullab yashnagan davri XVII asr oxiri XVIII asr boshlariga to'g'ri keladi.

Sharqda manzara janri o'ziga xos tarzda shakllandi, Xitoy rassomchiligida ushbu janr VI asrda butunlay mustaqil tarzda ajralib chiqdi. Xitoy rassomlari o'z asalarini tush vositasida ipak matolarga g'oyat nafis chizgilar bilan tasvilar edilar. Ular ijodidan asosan, yuksak tog'lar tasviri, cheksiz fazo yoki suvning nafis chizgilari, tuman og'ushidagi tabiat ko'rinishlari o'rin egallagan. Ushbu asarlar o'zida yuksak falsafiy ma'no kasb etardi. Xitoy manzaralarida ba'zan inson qomati turli timsollar orqali ham tasvirlangan. Masalan, tog' qarag'ayi, yovvoyi olxo'ri daraxti va boshqalar. Xitoy manzarachiligi o'zining ta'sirchanligi va ma'naviy mazmunining kuchliligi bilan ajralib tursa, Yapon rassomchiligida manzara janri o'zida inson kayfiyatining tabiat go'zalliklari orqali tasvirlanishi bilan farqlanadi. Yapon rassomlari chizgan manzaralarda turli yil fasllari har xil iqlimiy sharoitlar, quyoshning zarrin nurlari, oyning ma'sum nur sochishi tasvirlari orqali inson his-tuyg'lari, o'sha vaqtdagi kayfiyat va ichki kechinmalardan xabar berayotgandek bo'ladi.

Manzara janrining yo'nalishlari

1. Qishloq manzarasi - bunda tasvirlanayotgan qishloq hayotining atrof muhit va tabiat bilan aloqasi insonni o'ziga tortadi.

2. Shahar manzarasi - ushbu yo'nalish o'z nomi bilan aytib turibdiki, unda asosan sun'iy ko'llar, binolar, keng va tor ko'chalar, maydonlar, qirg'oq muhiti va boshqalar tasvirlanadi.

3. Dengizga oid manzara - bu tur yana bir nom bilan ham ataladi, ya'ni marina janri. Marina so'zi italyanча "marina" yoki lotinча "marinus" "dengiz" so'zidan olingan. Bu turda dengizning to'lqinlanishi, oy shu'lasidagi dengiz ko'rinishlari, suvda bo'lgan jang tavsilotlari tasvirlanadi. Marina janri XVII asrlarda Gollandiyada shakllandi. Dengizni tasvirlovchi rassomlarni esa marinistlar deb atashardi.

4. Me'moriy manzara - unda me'moriy yodgorliklar, qadimiy shaharlar ko'rinishi atrof-muhit va tabiat bilan umumlashgan holda ko'rsatiladi.

5. Qurilish manzarasi - bunda zavod va fabrikalar, inson qo'li bilan yaratilgan tog'on, ko'prik, vokzal, temir yo'llar va boshqa inshootlar tasvirlanadi.

6. Qahramonlik manzarasi - bu tur manzaraga har qaysi rassom o'zicha mazmun beradi. Bu shunday janrki, unda yuksak, baland tog'lar, kuchli savlatli daraxtlar, suvning vazmin silliq yuzasi bilan bir muhitda mifologik qahramonlar va xudolar tasvirlanadi.

7. Bezakli manzara - bunda binolarning me'moriy yaxlitligini to'ldirish uchun devorlarga bezaklar chiziladi.

8. Tarixiy manzara - bunda tarixiy voqealar, qadimiy yodgorliklar tasvirlanadi.

9. Epik manzara - tabiatning ichki jo'shqinliklari, ba'zan o'ta sokin kayfiyatda tasvirlanishi ushbu janrga xosdir.

10. Romantik manzara janri - ushbu janrda tabiatning eng nozik lahzalari, masalan, quyoshning botishi, shamolning beboshliklari, bulutlar orasidagi momaqaldiroq sadolari tasvirlanadi.

Muhokamlar va natijalar. Tabiat - bu donishmandlik kitobidir. Mana shu kitobni o'qib chiqmoq, undagi qimmatbaho boylikka ega chiqmoq uchun bizga, albatta, manzara janri kalit bo'la oladi. Manzara o'ziga xos murakkabliklarga ega hisoblanadi. Manzara chizish jarayonini boshlash o'quvchi oldiga qator vazifalarni qo'yadiva bu vazifalar o'quvchilarning yoshiga qarab turlicha bo'ladi. Men quyida e'tiboringizga yuqori sinf o'quvchilari manzara chizishda bilishi talab e'tiladigan turli bilim va ko'nikmalar bilan tanishtirib o'taman:

1. Atrof-muhit va tabiatni e'tibor bilan o'rganish, ko'rish bilan bir qatorda tabiat go'zalligini anglash.
2. Tabiat bilan bir qatorda tasviriy obrazni yaratish orqali o'z kayfiyatini tasvirlash.
3. Chizgan manzarasi orqali tabiatdagi yil faslini ko'rsata olish, kunning qaysi qismi ekanligini va ob-havoni tog'ri tasvirlash.
4. Manzara janrida ijod qilishdan oldin uning turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.
5. Manzaravis rassomlar ijodi bilan tanishish. Ular chizgan asarlar ma'nosini tahlil qilish.
6. Bu borada o'rgangan barcha nazariy bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish.


Jamiyatdagi zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ta'lim sohasida ham bo'layotgan inqilobiy o'zgarishlar mutaxassislarga yangi funksional talablarni qo'ya boshladi. Endilikda malakali mutaxassisdan faqatgina o'zining bevosita xizmat vazifasini yaxshi bajarishgina emas, balki yangi uslublarni topib amaliyotga kiritish, mustaqil qaror qabul qila bilish va ijodiy ishlay olish kabi ko'nikmalar talab qilinadi va mutaxassis o'qitish metodlari va yo'llari bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishi, o'qitishning tub maqsadini tasavvur qila olishi, unga erishish yo'llari va vositalarini bilishi lozim. Talabalarning bu bilimlarni puxta egallashiga yordam berish "tasviriy san'at o'qitish metodikasi" kursining asosiy vazifalaridan biridir. Uning oldida pedagogika fani tarmog'i sifatida quyidagi vazifalar turadi:

- tasviriy san'atni o'qitishning aniq maqsadlarini va uning fan sifatida bilim berish hamda tarbiyaviy ahamiyatlarini aniqlash;
- o'qitishning mazmuni va tuzilishini aniqlash;
- o'quvchilarning mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlovchi o'qitishning eng samarali usul, vosita va shakllarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiq qilish.

Xulosa. Yuqorida zikr etilgan maqsad va vazifalarni hal qilishda o'qitishning zamonaviy interaktiv metodlari va axborot texnologiyalaridan o'z o'rnida unumli foydalanish ijobiy natija berishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar

1. Xudoyorova O. O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan T. 1993.
2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –Toshkent: "Fan", 2004.
3. Oydinov N. Rassom o'qituvchilar tayyorlash muammolari. –Toshkent: "O'qituvchi", "Ziyo Noshir", 1997.
4. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –Toshkent: "Fan", 2004.
5. Abdiraulov S. Tasviriy san'at atamallari. –Toshkent, 2003.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000000100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlanitramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2022-yil maxsus son</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 08.06.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 13.06.2022 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 314 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	--	--